

## OLIY MAJLIS SENATI QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATINING KONSTITUTSIYAVIY-HUQUQIY ASOSLARI

Mirzayusupov Shohrux Shavkatovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Surxondaryo akademik litseyi huquq fani o'qituvchisi.

Tel: 93-871-93-33

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1459426>

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada Oliy Majlis Senati qonun ijodkorligi faoliyatining konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiyaviy qonunlar, normativ huquqiy hujjatlar, qonun ijodkorligi, parlament, qonun loyihasi, qo'mita.

### CONSTITUTIONAL AND LEGAL FOUNDATIONS OF THE LAW-MAKING ACTIVITIES OF THE SENATE OF THE OLIY MAJLIS

**Abstract.** This article discusses the constitutional and legal foundations of the law-making activities of the Senate of the Oliy Majlis.

**Keywords:** Constitutional laws, regulatory legal acts, law-making, parliament, draft law, committee.

### КОНСТИТУЦИОННО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ПРАВОТВОРЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СЕНАТА ОЛИЙ МАЖЛИСА

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются конституционно-правовые основы правотворческой деятельности Сената Олий Мажлиса.

**Ключевые слова:** Конституционные законы, нормативные правовые документы, правотворчество, парламент, законопроект, комитет.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunlari va qonunlarining qabul qilinishi normativ huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Birinchidan bu, O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni, "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati reglamenti to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi reglamenti to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Qonunlar loyihalari"ni tayyorlash va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish tartibi to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining reglamentini tasdmqlash to'g'risida"gi qarori kabi normativ huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

O‘zbekiston Respublikasida qonunlarni qabul qilish jarayoni yuqorida ko‘rib chiqqan ko‘pchilik ikki palatali Parlament tizimidagi davlatlardan farq qilmaydi. Shunday ekan, qonun ijodkorligi jarayonidagi Oliy Majlis yuqori palatasining roli ham ko‘p ham farq qilmaydi.

Qonun loyihasini taylorlash tartibi, qonun loyixasiga ilova qilinadigan hujjatlar, matniga va matnning shakliga qo‘yilgan talablar, qonun loyihasini ekspertizadan o‘tkazish va Qonunchilik palatisiga kiritish tartibi, O‘zbekiston Respublikasining “Qonunlar loyihalarini taylorlash va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasigakiritish tartibi to‘g‘risida” qonuni<sup>1</sup> da belilab qo‘yilgan. Qonun loyixasi Qonunchilik Palatasiga kiritilgandan so‘ng, qonun loyihasi quyi palata tomonidan uch o‘qishda ko‘rib chiqiladi. Uchinchi o‘qishda qonun loyihasi muhokama qilinmasdan to‘laligicha ovozga qo‘yiladi. Qonun Qonunchilik palatasi tomonidan palata deputatlari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Shu yerda, kichik bir masalaga e’tiboringizni qaratmoqchiman. Ikkita atama “Qonun loyihasi” va “Qonun” ya’ni qachon biz qonun loyihasi atamasini va qachon qonun atamasini qo‘llaymiz. Yuqorida keltirib o‘tilgan normativ huquqiy hujjatlarni tahlil qilish orqali, ushbu ikki atamani qo‘llashda quyidagicha xulosaga keldik, qonunchilik tashabbusi sub’etlari tomonidan taylorlangan normativ huquqiy hujjat loyixachi, Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi tomonidan ma’qullangunga qadar “qonun loyihasi” atamasini ishlatamiz, Qonunchilik Palatasi tomonidan ma’qullanganidan boshlab qonun loyixasi esa “qonun” termini bilan ataladi. Ba’zi konstitutsiyalarda, shu jumladan Rossiya qonunlarida, quyi palatadan qabul qilingan va yuqori palataga yuborilgan qonun loyihasi qonun deb nomlangan. Rossiya Konstitutsiyasining 105-moddasida: "Federal qonunlar Davlat Dumasi (quyi palata)tomonidan qabul qilinadi". Rus huquqshunos olimi V.Ye. Chirkin bu fikrni rad etadi: Matn yuqori palatada ma’qullanganidan keyin qonunga aylanadi, agar yuqori palataning voto qo‘ymaslik sharti bilan (agar shunday bo‘lsa, unda quyi palataning qabul qilgan hujjatini qonun sifatida qabul qilish maqsadga muvofiq emas)<sup>2</sup>.

Biz ham bu fikrga qo‘shilgan holda, qonun deb mamlakat Prezidenti tomonidan imzolangandan keyin nomlash maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz. Demak, Qonun Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi qabul qilinganidan so‘ng, yuqori Palata Senatga kiritiladi. Senatga kelib tushgan qonun ro‘yxatga olinadi va Senat Raisi tomonidan qonunni dastlabki tarzda ko‘rib chiqadigan hamda uning yuzasidan xulosa tayyorlaydigan qo‘mitaga topshiriladi.

Senat qo‘mitalarining qonun muhokamasiga bag‘ishlangan majlislari ochiq o‘tkaziladi.

Ma’lumot uchun aytishimiz mumkin-ki, 2020 yil 28 fevral kuni Oliy Majlis Senatining ikkinchi yalpi majlisida bir guruh yoshlari ham, bevosita, kun tartibiga qo‘yilgan masalalarining

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006 y., 41-son, 406-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2019 y., 03/19/536/3114-son

<sup>2</sup> Chirkin V.Ye. Verxnyaya palata sovremennoego parlamenta: sravnitelno-pravovoe issledovanie. – M.:2015 g., [https://studref.com/422333/pravo/verhnyaya\\_palata\\_sovremennoego\\_parlamenta\\_sravnitelno-pravovoe\\_issledovanie](https://studref.com/422333/pravo/verhnyaya_palata_sovremennoego_parlamenta_sravnitelno-pravovoe_issledovanie)

muhokamasini kuzptish imkoniga ega bo‘lishdi. Zarurat bo‘lganda Senat qo‘mitalari yopiq majlis o‘tkazish haqida qaror qabul qilishi mumkin.

Qonunchilikka ko‘ra, qo‘mitalarning majlislariga davlat organlari va nodavlat notijorat tashkilotlarining, ilmiy muassasalarning namoyandalari, mutaxassislar va olimlar, matbuot organlari, televidenie, radio va boshqa ommaviy axborot vositalarining vakillari taklif etilishi mumkin.

Kelib tushgan takliflarni mas’ul qo‘mita qonun yuzasidan xulosa tayyorlayotganda umumlashtiradi. Mas’ul qo‘mitaning xulosasida qonunni ma’qullah yoki rad etish to‘g‘risidagi tavsiya ifodalangan baho bo‘lishi kerak. Qonunni rad etish zarurligi to‘g‘risidagi xulosada mas’ul qo‘mitaning qonunni rad etish zarur deb hisoblashining vajlari bayon etilishi lozim.

Mas’ul qo‘mitaning xulosasi Senat Kengashiga taqdim etiladi, Kengash qonunni Senat majlisining kun tartibi loyihasiga kiritish-kiritmaslik to‘g‘risida qaror qabul qiladi.

Senatning majlisida qonunni ko‘rib chiqish ma’ruzachining mas’ul qo‘mita xulosasini o‘qib eshittirishidan boshlanadi. Ko‘rib chiqilayotgan qonun yuzasidan uning muhokamasi tartibida senatorlar so‘zga chiqishlari mumkin.

Muhokama natijalari asosida Senat qonunni ma’qullah yoki rad etish to‘g‘risida qaror qabul qiladi. Shakllantirish jarayoni va faoliyati siyosiy kurashlardan holi bo‘lgan Senat siyosiy partiyalar o‘rtasidagi raqobat maydoni hisoblanadigan bir palatali Oliy Majlis yoki Qonunchilik palatasidan farqli ravishda populizmdan holi bo‘ladi. Shu sababli Senat ma’qullah yoki rad etish orqali qonun siyosiy kurash vositasiga aylanib qolishining oldini oladi, ya’ni “qonunlar chiqarish jarayonida uchraydigan populizm, lobbizm va yengil-yelpi, tor doiradagi manfaatlarga qarshi turuvchi filtr sifatida ish tutadi”<sup>3</sup>.

Qonun Senat tomonidan senatorlar umumiyl sonining ko‘pchilik ovozi bilan ma’qullanadi.

Ammo O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasini, konstitutsiyaviy qonunni, ularga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi qonunlarni ma’qullah uchun senatorlar umumiyl sonining uchdan ikki qismidan iborat ko‘pchilik ovozi talab qilinadi.

Senat tomonidan ma’qullangan qonun imzolanishi va e’lon qilinishi uchun Senat qarori bilan birgalikda belgilangan tartibda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga yuboriladi.

Senatning qonunni rad etish to‘g‘risidagi qarorida rad etish vajlari ko‘rsatilishi kerak.

Unda bir vaqtning o‘zida qonunga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish zarurligi to‘g‘risidagi, shuningdek kelishuv komissiyasi tuzish haqidagi takliflar bayon etilishi mumkin.

Senatning qonunni rad etish to‘g‘risidagi qarori mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran o‘n kun ichida Qonunchilik palatasiga yuboriladi.

<sup>3</sup> Ameller M. Parlamentы (Per. s ang.). – M.: Progress. 1967.- 38-39-b.

O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan “Xalqaro tijorat arbitraji to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni senatorlarga ko‘rib chiqish uchun yuborildi. Oliy Majlis Senatining tashkil etilganidan buyon senatorlar tomonidan qonunlarni rad etish tajribasi juda kam kuzatilgan, bu esa senatning qonun ijodkorligi jarayonida Senatning ishtiroki yetarlicha emasligidan dalolat beradi. Ammo yuqorida nomi keltirib o‘tilgan qonun senatorlar tomonidan rad etildi. Senatorlar ta’kidlaganidek, Qonunda qator konseptual kamchiliklar mavjud. Masalan, Qonunning 3-moddasida uning qo‘llanilish sohasi belgilangan bo‘lsa-da, xalqaro tijorat arbitraji tushunchasi va tamoyillari ochib berilmagan. Shuningdek, 6-moddada Qonunning qo‘llanilish sohasini batafsil izohlash o‘rniga hal qilish uchun xalqaro tijorat arbitrajiga topshirilishi mumkin bo‘lgan nizolar sanab o‘tilgan. Senatorlarning fikricha, ushbu normada xalqaro tijorat arbitraji ko‘rib chiqishi mumkin bo‘lgan nizo predmeti to‘liq yoritilmagan.

Bu va boshqa kamchiliklar tufayli Qonunni jiddiy takomiliga yetkazish zarurligi ta’kidlandi<sup>4</sup>.

Senat tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan Senat va Qonunchilik palatasi yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun Senat a’zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari orasidan tenglik asosida kelishuv komissiyasini tuzishi mumkin.

Senatda kelishuv komissiyasini tuzish to‘g‘risidagi tashabbus Senat Raisidan, shuningdek Senat a’zolari umumiy sonining kamida beshdan bir qismini tashkil etuvchi senatorlardan chiqishi mumkin. Oliy Majlisining Cenati tomonidan rad etilgan qonun yuzasidan yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni bartaraf etish uchun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining kelishuv komissiyasini (bundan buyon matnda kelishuv komissiyasi deb yuritiladi) tuzish va uning faoliyatini tashkil etish tartibi Oliy Majlis Palatalari tomonidan qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Palatalarining Kelishuv komissiyasini tuzish va uning faoliyatini tashkil etish Tartibi” bilan tartibga solinadi.

Kelishuv komissiyasining har bir palatadan saylangan a’zolari o‘z tarkibidan ko‘pchilik ovoz bilan komissiya hamraislarni saylaydilar. Kelishuv komissiyasi qonunning yagona matnini ishlab chiqish maqsadida Senatning har bir e’tirozini alohida-alohida ko‘rib chiqadi. Kelishuv komissiyasining qarorlari kelishuv komissiyasi tarkibiga kirgan senatorlar va Qonunchilik palatasi deputatlarining alohida-alohida ovoz berishi orqali qabul qilinadi. Qaror, agar komissiyaning har bir palatadan saylangan a’zolarining ko‘pchiligi uni yoqlab ovoz bergan bo‘lsa, qabul qilingan hisoblanadi. Kelishuv komissiyasi o‘z ishining natijalari yuzasidan kelishmovchiliklarni bartaraf etish bo‘yicha takliflarni o‘z ichiga olgan xulosa qabul qiladi.

Xulosaga qonunga doir o‘zgartishlar va qo‘sishchalar loyihasining matni ilova qilinadi.

<sup>4</sup> El. Resurs: <http://senat.uz/uz/lists/view/1142>

Xulosa Senat va Qonunchilik palatasidan saylangan kelishuv komissiyasining hamraislari tomonidan imzolanib, tegishincha Senat va Qonunchilik palatasiga topshiriladi.

Senat kelishuv komissiyasining takliflarini qabul qilgan taqdirda qonun Qonunchilik palatasi tomonidan odatdagi tartibda qayta ko'rib chiqilishi kerak. Xorij tajribasi ko'rsatishicha, qonun mukammal bo'lishi uchun birgalikda olib boriladigan harakatlar, palatalar orasidagi hamkorlikning eng samarali vositasidir<sup>5</sup>. Kelishuv komissiyasining loaqla bitta taklifi rad etilgan taqdirda Senat kelishuv komissiyasiga yangi takliflarni taqdim etish uchun palata tomonidan ma'qullangan tuzatishlarni inobatga olgan holda ishni davom ettirishni taklif qilishi mumkin.

Agar Senat qonunni kelishuv komissiyasining tahririda ma'qullamasa, u rad etilgan qonun sifatida Qonunchilik palatasiga qaytarilishi kerak.

Qonunchilik palatasi qonunni kelishuv komissiyasining tahririda qabul qilgan taqdirda, qonun Senatga ma'qullah uchun zarur materiallar ilova qilingan holda besh kun ichida yuboriladi.

Agar Senat tomonidan rad etilgan qonunni qayta ko'rib chiqishda Qonunchilik palatasi uni kelishuv komissiyasining tahririda qabul qilmasa va Senatning qonunni rad etish to'g'risidagi qaroriga rozi emasligini bildirsa, qonun ilgari qabul qilingan tahrirda ovozga qo'yiladi. Agar Qonunchilik palatasi deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismidan iborat ko'pchilik ovozi bilan qonunni yana ma'qullasa, qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan hisoblanadi va imzolanishi hamda e'lon qilinishi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga Qonunchilik palatasi tomonidan o'n kun ichida yuboriladi.

Agar Senat tomonidan rad etilgan qonun Qonunchilik palatasida ilgari qabul qilingan tahrirda ovozga qo'yilganda ushbu qonun deputatlar umumiy sonining uchdan ikki qismining ovozini ololmasa, ko'rib chiqilayotgan qonun qabul qilinmagan hisoblanadi. Ko'rib chiqilayotgan qonun bo'yicha Qonunchilik palatasi va Senat tomonidan uzil-kesil qaror qabul qilingandan keyin kelishuv komissiyasi Qonunchilik palatasi va Senatning tegishli qarorlariga binoan tugatiladi.

Yuqorida biz, O'zbekiston Respublikasi normativ huquqiy hujjatlariga asoslangan holda, Oliy Majlis Senatining qonun ijodkorligi jarayonidagi ishtirokining hozirgi holatini ko'rdik.

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili"da amalga oshirishga oid Davlat dasturi loyihasida aynan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatning qonun ijodkorligi jarayoni bilan bog'liq bir qator masalalar xalq muhokamasiga qo'yilgan edi. Bular jumlasiga,

- senatorlarni qonunchilik tashabbusi huquqi sub'ektlari qatoriga kiritish;

<sup>5</sup> Gnezdilov M.Z. Zarubejnyu opyt organizatsii vzaimodeystviya palat parlamentov v zakonodatelnom protsesse // Aktualnye problemy gosudarstvennogo stroitelstva. Analiticheskiy vestnik № 34 (190), M., 2002, S.52-55

- Senatga kelib tushgan qonunning joylardagi muhokamasini tashkil etishning aniq mexanizmini belgilash;

- Oliy Majlis Senatiga Qonunchilik palatasidan qabul qilingan qonunlarga tegishli o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish vakolatini berish masalalarini ilg‘or xorijiy tajribaga asosan chuqur tahlil qilish va aniq takliflar ishlab chiqish nazarda tutiladi<sup>6</sup>.

Ushbu masalalar yuzasidan, xalq muhokamasi davomida, dasturda keltirib o‘tilgan bandlar bo‘yicha ham ijobiy ham salbiy fikrlar bo‘ldi. Xususan, “dunyodagi ikki palatali parlamentga ega bo‘lgan deyarli barcha davlatlarda yuqori palataga quyi palata qabul qilgan qonunlarni faqat ma’qullash yoki ma’qullamasdan qaytarib yuborish vakolati berilgan, unga o‘zgartirish yoki qo‘shimcha kiritolmaydi. Yuqori palatada qabul qilingan qonunlarga o‘zgartirish yoki qo‘shimcha kiritish vakolatining bo‘lishi jahon parlamentarizmi an’analariga, parlamentarizm nazariyasiga ziddir.

## REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006 y., 41-son, 406-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2019 y., 03/19/536/3114-son
2. Chirkin V.Ye. Verxnyaya palata sovremennoego parlamenta: sravnitelno-pravovoe issledovanie. — M.:2015 g., [https://studref.com/422333/pravo/verhnyaya\\_palata\\_sovremennoego\\_parlamenta\\_sravnitelno-pravovoe\\_issledovanie](https://studref.com/422333/pravo/verhnyaya_palata_sovremennoego_parlamenta_sravnitelno-pravovoe_issledovanie)
3. Ameller M. Parlamenti (Per. s ang.). – M.: Progress. 1967.- 38-39-b.
4. El. Resurs: <http://senat.uz/uz/lists/view/1142>
5. Gnedilov M.Z. Zarubejnyu oryt organizatsii vzaimodeystviya palat parlamentov v zakonodatelnom protsesse // Aktualnye problemy gosudarstvennogo stroitelstva. Analiticheskiy vestnik № 34 (190), M., 2002, S.52-55
6. El. Resurs: <https://regulation.gov.uz/uz/document/13624>

<sup>6</sup> El. Resurs: <https://regulation.gov.uz/uz/document/13624>